

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

AMERIKA HINDULARI ADABIYOTIDA MO'JIZAVIY REALIZM XUSUSIYATLARI

Nilufar Muxammedova,
*O'zDJTU Falsafa doktori (PhD),
dotsent*

Annotatsiya: *Maqolada amerika hindulari adabiyotida mo'jizaviy realizm xususiyatlari ochib berilgan. Mo'jizaviy realizm atamasi haqida ko'plab bahslar sodir bo'ldi va natijada amerika adabiyotida yangi yo'nalish vujudga keldi. Mo'jizaviy realizm xususiyatlarini keng tasvirlayotgan adiblardan biri amerikalik yozuvchi Sherman Aleksidir.*

Kalit so'zlar: *Amerika, hindular, adabiyot, mo'jizaviy realizm, asar, atama, tarix.*

Аннотация: *В статье раскрываются характеристики магического реализма в литературе американских индейцев. Термин магический реализм много обсуждался, и в результате возникло новое направление в американской литературе. Одним из писателей, широко описывающих особенности магического реализма, является американский писатель Шерман Алекси.*

Ключевые слова: *Америка, индейцев, литература, магический, реализм, роман, термин, история.*

Annotation: *Annotation: the article focuses the characteristics of magical realism in native American literature. The term magical realism has been debated a lot and as a result, a new direction in American literature has emerged. One of the writers who widely describes the characteristics of magical realism is American writer Sherman Alexi.*

Key words: *America, native American, literature, magical realism, novel, terminology, history.*

Jahon adabiyotida mo'jizaviy realizm atamasi XX asr jahon adabiyotida bir qator asarlar yo'nalishini atashda qo'llanib kelinayotgan atama hisoblanadi. Atama etimologiyasi va tipologik aspektlari jahon adabiyotshunoslarining muhokama mavzusi bo'lib kelmoqda. Mo'jizaviy realizm fenomeniga L.I Malchukov, Yu.V.Zaxarova, A.B.Chanadi, A.A.Gugnin, Meggi Enn Bauers, Iren Guenter, Xanna Gilxamm, S.Slemon kabi adabiyotshunos olimlar tadqiqot ishlarida murojaat qilishgan. Mazkur tadqiqotchilar mo'jizaviy realizmga bag'ishlangan ilmiy asarlar yaratgan bo'lsalarda, haligacha atamani ifodalashda turli xil qarashlar mavjud. Ularning ko'pchilik qismi "mo'jizaviy realizm" hodisasini realizm metodining sehr, fantastika, jodu kabi tushunchalari bilan bog'lashadi.

Mo'jizaviy realizm atamasini ilk bor nemis san'at tanqidchisi Frans Ro 1925-yilda foydalandi. Ro mazkur atamani Germaniyada 1920-yillarda Ekspressionizm rad etgan bir guruh musavvirlarga nisbatan ishlatdi. Musavvirlar o'z asarlarida realizmni yangi nuqtayi nazardan tasvirladilar, ya'ni ular oddiy buyumlarda, narsalarda yashiringan mo'jizani ko'ra oldilar va asarlarida mana shu ilg'ab bo'lmas sehrni ko'rsatdilar. Frans Ro yangi san'atning real xarakteriga urg'u berdi, u reallikka

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ma’naviy kuch orqali erishishga urindi. Roning fikriga ko‘ra, mo‘jizaviy realizm reallik va fantastikaning qorishmasi emas, aksincha kundalik hayotda yashiringan sehrni ochish usulidir¹.

1927-yil ispan yozuvchisi va faylasufi Xose Ortega Gasset Ronin asarini ispan jurnalida e’lon qildi va mo‘jizaviy realizm atamasi Lotin Amerika adabiyotshunoslari orasida keng qo‘llaniladigan bo‘ldi. Mo‘jizaviy realizm tushunchasi mif va mahalliy aholi madaniyatini ifodaladi. Karpenter “lo real maravilloso” ya’ni mo‘jiza/sehrli reallik atamasini “Shu olam saltanati”(1949) asarining so‘z boshida tanishtirdi.

Adibning fikricha, atama o‘zida Amerikani Yevropadan ajratib turuvchi real narsalarni va voqealarni tasvirlaydi. Karpenter uchun Amerikaning tabiiy, tarixiy va madaniy boyliklari haqiqiy mo‘jizalarning cheksiz manbasi hisoblandi. Amerika tarixi esa sehrli reallikning xronikasini tashkil etdi. Mo‘jiza voqelikdagi kutilmagan o‘zgarishdan kelib chiqadi, unga ishonish muhim ahamiyatga ega, mo‘jizaviy tuyg‘u iymonni nazarda tutadi. Muqaddas narsalarga ishonmaganlar muqaddas “mo‘jizalar”dan shifo topa olmaydilar².

Asarning kirish so‘zida, A.Karpenter syurrealizm borasidagi fikrlarini bayon qildi. Syurrealizm birinchi jahon urushidan ko‘p o‘tmay Fransiyada yuzaga keldi, g‘arb dunyosida qadriyatlar inqirozini ko‘rsatdi va g‘arb an‘analariga tanqidiy munosabatni shakllantirdi. Syurrealizmda shakllar va obrazlar o‘z tasavvuriga ega, orzular dunyosi va ong muhim ahamiyat kasb etadi. Syurrealizm estetikasining asosiy mavzusi mo‘jizani, sehrni izlashdan iborat, unda inson orzularning ajoyib dunyosi bor. Mana shu sehrni izlashda syurrealizm namoyondalari orzularni ifodalashning turli uslublaridan, tilning barcha xususiyatlaridan foydalanishdi³. A.Karpenter uchun bularning barchasi XX asr Yevropa adabiyotida mavjud bo‘lgan “mo‘jizani topish uchun olib borilgan mashaqqatli izlanishlarni” anglatdi. Syurrealistlarning “mo‘jizasida” Karpenter mif va afsonalar o‘zgartirgan reallikning sehrini ifodalagan fokuslarni ko‘ra oldi xolos.

A.Karpenterning “mo‘jiza” ma’nosini ifodalaydi. Bunga oid badiiy asarlarda etno-madaniy guruhlarining e’tiqodlari va afsonalari, ikki xil dunyoqarash - biri sehrli, ikkinchisi ratsional bo‘lgan olam tasvirlanadi. Mo‘jiza, sehr odatiy shaklda odatiy tarzda taqdim etiladi, undagi e’tiqod va irim-sirimlar xalq og‘zaki ijodiga, miflarga, afsonalarga va folklor namunalariga asoslanadi. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash

¹ Spindler W. Magic Realism: A Typology. Forum for Modern Language Studies, 29 (1). 1993 –P. 38.

² Monegal E. R. Magical realism versus fantastic literature. ed. By Donald A. Yates (East Lansing: Michigan State University, 1975.- P. 15.

³Langowski Gerald J., Surrealism in Spanish-American fiction. Madrid: Gredos, 1982. –P.12.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

lozimki, mo‘jizaviy realizm adabiyotda o‘z tamoyillariga, kontseptiga ega bo‘lgan, ma‘lum adabiy shakllanish jarayonini boshidan o‘tkazgan adabiy metoddir. Ingliz tilida “magical” so‘zi “sehrli, mo‘jizaviy” ma’noga ega bo‘lib “Magical Realism” deb nomlansa, rus tilida esa “misticheskiy” yoki “magicheskiy” so‘zlari bilan ataladi. Rus tilidagi “magicheskiy va misticheskiy realism” bir-biriga sinonimik tarzda qo‘llaniladi. Biroq, biz ingliz tilidagi “Magical Realism” atamasini o‘zbek tilida “mo‘jizaviy realism” deb nomlashni lozim topdik. Bunga misol tariqasida mo‘jizaviy realizmni Sherman Aleksii ijodida ko‘rib chiqish mumkin. Sherman Aleksii amerikaning tub aholisi hisoblangan hindu adibidir. U 1966-yili Amerika qo‘shma shtati Velpinitda dunyoga kelgan. Bugungi kunda yozuvchi amerika hindu adiblari an‘analarini davom ettirayotgan yozuvchi hisoblanadi.

Amerika adibi Jeyms Ruppert hindu adiblari ikki xil kitobxon uchun ijod qilishmoqda, ya’ni immigrant va hindular uchun. Biroq bugungi kunda amerikadagi kitobxonlar immigrantlar, oddiy aholi va hindularni tashkil qilmoqda. Hindular rioya qilgan an‘analar, aqidalarni keng targ‘ib qilishga urinayotgan Sherman Aleksii ularning o‘ziga xos madaniyatiga alohida e’tibor qaratadi. U yaratgan qator “Tabiat musiqasi” (1995), “Hindu qotil” (1996), “Parvoz” (2007) kabi asarlari va “O‘nta hindu bolasi” (2003), “Urush raqsi” (2009) kabi hikoyalar bevosita amerika jamiyatida hindular o‘rni va ularning madaniyatini kelajak avlod uchun saqlab qolish xususiyati bilan xarakterlidir.

Sherman Aleksining 2003-yilda yaratgan “Ten little Indians-O‘nta hindu bolasi” nomli hikoyalar to‘plami hindular hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi marosimlar haqida hikoya qiladi. Mazkur to‘plamga kiruvchi “Don’t go gentle” hikoyasi bosh qahramoni oilali hindudir. Uning o‘g‘li kasalmand bo‘lib, bolakay betoblighi sabab shifoxonaga yotqizilgan edi. O‘g‘lining sog‘ayib ketishi uchun Hindu hamma narsaga tayyor otadir. U rafiqasi bilan o‘g‘lining oldida hazin ohangda qo‘shiqlar kuylashar, tinmay duolar qilishardi. Bolakay tepasida turib qo‘shiq aytish o‘ziga xos marosim bo‘lib, hindular aqidasiga ko‘ra bemorni o‘ziga keltirishi va sog‘ayishi uchun qilinardi. Yosh ota-ona farzandining o‘ziga kelmayotganidan qattiq tushkunlikka tushib qolishadi. Shunda bolakayning otasi Hindu o‘yinchoq do‘koniga borib, tebranuvchi shokoladli chaqmoq o‘yinchog‘ini sotib oladi. Farzandining oldiga kelib o‘yinchoqni tebranishiga mos ohangda yana qo‘shiq kuylay boshlaydi. Bu marosimni shunchalar berilib o‘tkazishadiki, go‘yo undan mo‘jiza kutishayotgandek edilar. Bu hikoyada quyidagicha tasvirlanadi: *“It was my wife who grabbed Chocolate Thunder and used it like a drumstick to pound her hand drum. She sang a brand – new song that echoed up and down the hallways of Children’s Hospital. She sang like ten thousand Indian grandmothers rolled into one mother. All the while, Chocolate*

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Thunder sang with her and turned the whole thing into a healing duet – Rafiqam shokoladli chaqmoqni qo‘lida do‘mbira cho‘piday ushlab tebratardi. U yangi qo‘shiq kuylardi. Bu qo‘shiq butun kasalxonadagi bolalarga aks sadoday eshitilardi. Qo‘shiq minglab hindu buvilar bitta onaga jo bo‘lganday kuylanardi. Hattoki shokoladli chaqmoq ham u bilan birga jo‘r bo‘lib duyet kuylardi”⁴.

Bu marosim o‘g‘lining sog‘ayishi uchun o‘tkazilayotgan edi. Hikoyada keltirilgan o‘yinchoq ham bevosita tuzalish marosimining bir detali sifatida tasvirlanadi. O‘g‘lining dardiga chora topa olmagan ona butun dardini qo‘shiqda kuylash orqali betob o‘g‘liga so‘zlardi. Dardmand bolakay onasining ovozi eshitib sekin ko‘zlarini ochishi ota-ona kutgan mo‘jizaday edi. Bolakayning o‘ziga kelishida o‘tkazilgan marosim hindularning o‘ziga xos bo‘lgan urf-odatlaridan darak beradi. Ular bunga so‘zsiz ishonishlari esa ular kutgan natijasin ya’ni mo‘jizani sodir qilishi hayratlanarli ohang kasb etadi. Mazkur to‘plamga kiritilgan “What you pawn I will redeem – garovga tikish va qaytarib olish” hikoyasida esa biz o‘rta yoshli uysiz Hindu obrazini ko‘ramiz. U ikki nafar ayolini va bolalarini tashlab ketgan va ichkilik oqibatida ishini ham yo‘qotgan. Uning bittagina fazilati diniy aqidalarga ishonishi va kuchli rioya qilishidir. U vafot etgan sevimli buvisini tez-tez eslab turardi. Unga atab raqs tushish marosimini o‘tkazmoqchi edi marosim narxi ming dollarni tashkil qilardi. Bu mablag‘ haqiqiy mehnat bilan topilishi kerak, bo‘lmasa marhumlar tomonidan marosim qabul qilinmaydi. Marosimda ijro etiladigan raqsda ham o‘ziga xos xususiyat mavjud. Hindular mazkur raqs orqali marhumlar bilan uchrashish baxtiga muyassar bo‘lishadi. Bunday marosimning mo‘jizakorligi ham mana shu raqs ijrosida ko‘zga tashlanadi. Dastlab marosimga sarf etiladigan mablag‘ haqiqiy mehnat orqali topilmasa, marhumlar ko‘zga ko‘rinishmaydi. Ular buni shunday talqin qilishadi. Agar mablag‘ haqiqiy mehnat qilib topilgan bo‘lsa, marhumlar marosimda ishtirok etishadi. Marhumlarning marosimda ishtirok etishlariga ishonish va, hattoki, inson ko‘ziga ko‘rinishi bir tomonidan hayratlanarli bo‘lsa, ikkinchi tomondan insonni biroz seskantiradi ham. Bunday marosim hindular tomonidan ham shunchaki o‘tkazilmaydi, ular bunga maxsus tayyorgarlik ko‘rishadi. Avvalo bunday marosim qabila boshlig‘i bilan maslahat qilinadi. Qabila a’zolarining roziligi bilan bu marosim amalga oshiriladi.

Muallif bunday tipdagi marosimlarni tasvirlar ekan hindu qabilalarining ichki dunyosini va ularning turfa xilligini ham ko‘rsatib berishga muvaffaq bo‘lgan.

⁴ Sherman A. Ten little Indians, USA: grove Press 2004. – P.115.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Langowski G. J. Surrealism in Spanish-American fiction. Madrid: Gredos, 1982. –P.12.
2. Monegal E. R. Magical realism versus fantastic literature. ed. By Donald A. Yates. East Lansing: Michigan State University, 1975. –250 p.
3. Spindler W. Magic Realism: A Typology. Forum for Modern Language Studies, 29 (1). 1993. – 120 p.
4. Sherman A. Ten little Indians. USA: grove Press 2004. – 243 p.